

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## MATEMATIKA FANIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Omonova Farida Shakirovna

Toshkent Shahar Shayxontohur tumani

320- maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi



### Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'limning sifat va samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati, bolani fanga qiziqtirishning asosiy vositalari, didaktik o'yinlarning turlari va ularni qo'llash usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Didaktik o'yinlar, harakat, mashg'ulot, dars, baholash, faoliyat, ko'nikma, ta'lim, maqsad, doska.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kirib kelmoqda. Bu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini, ulardan samarali foydalanish yo'llarini o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan biridir. Pedagogik texnologiyalarning markaziy muammosi bola shaxsini rivojlantirish orqali ma'lum maqsadga erishishni ta'minlashdan iborat. Maktab va maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati bu o'yin faoliyatidir. Jahon pedagogikasida ta'limning o'yin shakli so'nggi paytda keng tarqaldi. Pedagogik adabiyotlarda o'yinlardan foydalanib, o'quv jarayonini faollashtirishni ko'pincha "faol ta'lim" deb atashadi. Ma'lumki, 1-sinfga qabul qilinib, maktab ostonasiga ilk qadamini qo'ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. O'yin bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof-muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi.

Didaktik o'yin – bu murakkab pedagogik hodisa. Didaktik o'yinlar bolalarning kognitiv faolligini oshirishning samarali usullaridan biridir. Eksperimental faoliyatda didaktik o'yin – bolalarning atrof-muhitga kognitiv qiziqishini shakllantirishga yordam beradi, asosiy aqliy jarayonlarni kuzatishni, fikrlashni rivojlantiradi.

Didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarining mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi, o'yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangiliklar, yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolalarning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashib boradi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.

Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi. Didaktik o'yinlarda quyidagi qoidalariga amal qilish kerak:

1. Navbatma-navbat ta'sir etish;
2. So'ralganda javob berish;
3. O'rtoqlari fikrini eshita olish;
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik;
5. O'yin qoidasini bajarish;
6. O'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlarda bolalarning yosh xususiyatlarini, individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega. Darsda qo'llaniladigan o'yinlar va o'yin mashqlari bolalarda quvnoq mehnatkash kayfiyatni yaratadi, o'quv materialini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi, ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Didaktik o'yin ta'lim va tarbiyaning boshqa shakllari bilan birlashtirilgan va o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit pedagogik jarayonning bir qismidir. Bolalar nutqini rivojlantirish uchun o'yinlar va mashqlar ishlab chiqilgan. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini beradi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar 2 xil tasniflanadi:

1. Mazmuniga ko'ra;
2. Amalga oshirish shakliga ko'ra.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, har fanning o'ziga xos bo'lgan didaktik o'yinlari bor. Jumladan, matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilar zehni o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Matematika darsida foydalanishi mumkin bo'lgan didaktik o'yinlardan namunalar keltirib o'tamiz:



## 1. "Jim" o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" belgilari haqidagi bilim va malakalarini oshirish, sinash. O'yin guruhlarda o'ynaladi.

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

O'yin jihozi: raqamlar yozilgan tarqatmalar, misollar, jadval.

Jadvallar doskaga osib qo'yiladi, doskaga bo'r bilan yoziladi. O'yin ovoz chiqarmagan holda o'tkaziladi. O'qituvchi ko'rsatkich barmog'i bilan 7 va 5 ni ko'rsatadi. O'quvchilar o'ylab turib, ularning ayirmasini, yaani 2 ni ko'rsatadi.

2. "Bilmasvoyning xatolari" o'yini.

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning o'n ichida "+", "-" ishorasi haqidagi bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalarini mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirish.

Vyinning borishi: Doskaga ifodalar yoziladi. Har bir qatordan bir nafardan o'quvchi doskaga chiqadi. Doskaga bir nechta ifodalarning noto'g'ri javoblari yozilgan bo'ladi. Doskaga chiqqan o'quvchi xatolarni tuzatadi.

Masalan:  $10-7=4$   $7-3=5$   $3+2=6$   $4+3=8$

3. "Kim epchil" o'yini

O'yinning maqsadi: Hozirjavoblik, topqirlik malakalarini oshirish.

Vyin jihozi: 2 ta savatcha, ifodalar yozilgan olmalar.

Masalan:  $12-6$   $7+5$   $10-3$

$2+8$   $4+8$   $20-5$  va hokazo

Stol ustida olmalar yozib qo'yiladi. Doskaga 2 nafar o'quvchi chiqadi. Stol ustidagi olmalardagi ifodalarning natijalarini aytib savatga sola boshlaydilar. Ifodaning qiymatini to'g'ri topmagan o'quvchi ularni savatga sola olmaydi. Qaysi o'quvchi savatga ko'p olma tergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

4. "Bu qaysi shakl" o'yini.

O'yinning maqsadi: Geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ularga ta'rif berish malakasini oshirish. Og'zaki nutqini rivojlantirish. O'yin jihozi: Konvertlarga solingan geometrik shakllar.

O'yinning borishi: Doskaga bir o'quvchi chiqadi. Konvertdagi shakllarning qaysi shakl ekanini ko'rib olib, o'quvchilarga murojaat qiladi. "Qo'liimdagi geometrik shaklning uch tomoni, uch burchagi bor, uning tomonlari har xil uzunlikda bo'lishi ham mumkin. Bu qaysi shakl?" Shaklga to'g'ri ta'rif bergan va shaklning nomini to'g'ri topgan o'quvchi rag'batlantiriladi.

"Kopto'k" o'yini

Ushbu o'yindan maqsad o'quvchilarning matematik nutqini o'stirish. Guruh o'quvchilari kopto'kni bir - biriga uzata turub, matematika faniga oid bo'lgan terminlarni navbat bilan aytadilar. Masalan: "Kub", "ayirma", "son", "to'rtburchak", "misol", "masala" va hokazo kabi. Shuningdek ularning moliyaviy savodxonligini



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

oshirish bo'yicha ham o'yin shartiga iqtisodga oid terminlarni aytish topshirig'i kiritiladi. Bolalar "mulk", "mulkdor", "bank", "iste'molchi", "pul", "soliq", "bozor", "foyda", "daromad" kabi terminlar bilan tanishib boradilar va ularni ongli ravishda so'zlashuv jarayonida qo'llashga harakat qilishadi. 1. Qimmatbaho qog'oz.

2. Daromaddan to'lanadigan to'lov.

3. Muayyan muddatga ma'lum bir foiz evaziga qarz berish.

4. Doimiy iste'molchi, xaridor.

5. O'zbek milliy valyutasi.

6. Aholi uchun zarur bo'lgan iste'mol to'lovlarning oldi - sotdisi.

7. Olingan foyda.

Guruhlarni rag'batlantirish. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning faolligiga qaratiladi.

Eslatma: Kerakli o'rinlarda o'qituvchi tomonidan qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritilish mumkin. Yuqorida qayd etilgan o'yin va topshiriqlar orqali o'quvchilarning barcha tafakkur operatsiyalari, hodisalarni har tamonlama tahlil qilish sabab, oqibat, bog'lanishlarni aniqlash jarayonida o'quvchilar faolligi yanada oshadi. Shu tariqa o'quvchilarda darslarga qiziqish hosil qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar yosh avlodning axloqiy tarbiyasiga katta e'tibor beradi. Bolalar kattalar mehnati natijasida atrofdagi narsalarga g'amxo'rlik qilishni o'rganadilar, ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari, tengdoshlar va kattalar bilan bo'lgan munosabatlar, turli xil shaxsiy xususiyatlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruzikulova N., Raxmonov U., 1-sinf Matematika. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma Toshkent 2021y.

2. O'rinboyeva L., Jumayev M., Ruzikulova N., 1-sinf Matematika Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 1-sinfi uchun darslik Toshkent 2021

3. O'rinboyeva L., Jumayev M., Ruzikulova N., 3-sinf Matematika Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 1-sinfi uchun darslik Toshkent 2021

